

**BOSHLNG'ICH SINFLARDA BAHOLASH TIZIMINI  
TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

*Normo'minova Gulhayo Shavkat qizi*  
*Samarqand davlat pedagogika instituti*  
*Pedagogika kafedrası assistenti*  
*Saydullayeva Dilruxsor Asqar qizi*  
*Samarqand davlat pedagogika Instituti*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda baholash tizimini takomillashtirishning zamonaviy yo'llari yoritilgan. Baholashning ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati, formativ va kompetensiyaviy baholash usullarining samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, individual yondashuv, rag'batlantiruvchi baholash, axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda o'z-o'zini baholashning o'quvchilar rivojlanishidagi o'rni ochib berilgan. Maqolada boshlang'ich ta'limda adolatli va samarali baholash tizimini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** baholash tizimi, boshlang'ich ta'lim, formativ baholash, kompetensiya, rag'batlantirish, pedagogik texnologiya, o'z-o'zini baholash.

**Аннотация**

В данной статье рассматриваются современные пути совершенствования системы оценивания в начальных классах. Проанализировано значение оценивания в повышении качества образования, а также эффективность формативного и компетентностного оценивания. Освещены вопросы индивидуального подхода, стимулирующего оценивания, использования информационных технологий и самооценки в развитии учащихся. В статье представлены рекомендации по организации справедливой и эффективной системы оценивания в начальном образовании.

**Ключевые слова:** система оценивания, начальное образование, формативное оценивание, компетенция, мотивация, педагогические технологии, самооценка.

**Annotation**

This article discusses modern ways of improving the assessment system in primary education. The importance of assessment in enhancing the quality of education and the effectiveness of formative and competency-based assessment methods are analyzed. The article also highlights the role of an individual approach, motivational assessment, information technologies, and self-assessment in students' development. Recommendations for organizing a fair and effective assessment system in primary education are provided.

**Keywords:** assessment system, primary education, formative assessment, competency, motivation, pedagogical technology, self-assessment. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi.

Ta'lim jarayonining samarali tashkil etilishi va talabalarning bilim, ko'nikma hamda malakalarini oshirishda baholashning o'rni beqiyosdir. Baholash — bu o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'qitish samaradorligini baholash va kelgusida ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimlarida turli xil baholash usullari qo'llaniladi, ular o'quvchilarning qobiliyatlari, bilim darajalari va faoliyatini har tomonlama o'rganishga imkon yaratadi. Baholash usullarining to'g'ri tanlanishi va samarali qo'llanilishi o'qitish jarayonini yanada interaktiv va individual yondashuv asosida tashkil etish imkonini beradi. Shu bois, o'qitishda baholash usullarini chuqur o'rganish, ularning afzallik va kamchiliklarini tahlil qilish hamda zamonaviy ta'lim talablariga mos usullarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzu doirasida o'qitish jarayonida qo'llaniladigan turli baholash usullarining turlari, ularning xususiyatlari va samaradorligi haqida batafsil to'xtalib o'tiladi dolzarbli. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, talabaning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va baholash muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'quvchining ta'lim jarayonidagi faolligi, o'zlashtirish darajasi va rivojlanish tendensiyalarini aniqlashda baholash muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim sohasidagi islohotlar va yangilanishlar, ayniqsa, o'qitish jarayonining sifatiga e'tiborni kuchaytirishni taqozo etmoqda. Bu esa baholash tizimini takomillashtirish, uning shaffofligi, adolatliligi va samaradorligini oshirishni talab qiladi. Baholash faqatgina nazorat vositasi emas, balki ta'limni boshqarish, o'quvchilarning o'z-o'zini baholash va rivojlantirish imkoniyatlarini yaratishda ham asosiy omillardan biridir. Bugungi kunda ta'limda innovatsion texnologiyalar, raqamli platformalar va zamonaviy baholash yondashuvlari tobora keng qo'llanilmoqda. Bu esa o'qituvchidan yangicha fikrlash, o'quvchini chuqurroq tahlil qilish va unga individual yondashishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, o'qitish jarayonida turli baholash usullarini chuqur o'rganish, ularning samaradorligini aniqlash va amaliyotga tatbiq etish masalasi bugungi ta'limda dolzarb hisoblanadi. Mavzuning tanlanishiga sabab ham aynan ta'lim jarayonida baholash usullarining o'rni va roli yildan-yilga ortib borayotganidir. Maqolaning yozishdan maqsadi — o'qitish jarayonida qo'llaniladigan baholash usullarini o'rganish, ularning turlari, afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish hamda zamonaviy baholash yondashuvlarining ta'lim sifatiga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblangan baholash – o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, nazorat qilish, tahlil etish va rag'batlantirish vositasi sifatida pedagogik faoliyatda muhim o'rin tutadi. Baholash yordamida nafaqat

o'quvchining o'zlashtirish darajasi aniqlanadi, balki o'quv jarayonining sifati, o'qituvchining metodik yondashuvi va ta'lim samaradorligi haqida ham muhim xulosalar chiqariladi. Baholash tushunchasi keng mazmunga ega bo'lib, u o'qitish jarayonida o'quvchi faoliyatini baholash, nazorat qilish, natijalarni aniqlash, ularni tahlil qilish hamda zarur hollarda tuzatishlar kiritish kabi vazifalarni bajaradi. Zamonaviy pedagogikada baholash — bu faqatgina ball qo'yish emas, balki o'quvchining individual rivojlanish yo'nalishini aniqlash, o'z-o'zini nazorat qilish va takomillashtirishga undaydigan vositadir. Baholashning quyidagi asosiy funksiyalarini ko'rsatish mumkin:

Diagnostik funktsiya – o'quvchining bilim darajasini, kamchiliklarini va bilim bo'shliqlarini aniqlash imkonini beradi.

Nazorat funktsiyasi – belgilangan maqsad va natijalar asosida o'quv jarayonini kuzatish va nazorat qilishni ta'minlaydi.

Rag'batlantiruvchi funktsiya – o'quvchini faol bo'lishga, yaxshi o'qishga undaydi, ijobiy motivatsiya uyg'otadi.

Tashkiliy funktsiya – o'quv jarayonini tartibga soladi, uni tizimli amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tarbiyaviy funktsiya – o'quvchida mas'uliyat, intizom, o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Axborot funktsiyasi – o'qituvchi, o'quvchi va ota-onaga o'quv natijalari haqida ma'lumot beradi.

Shunday qilib, baholash ta'limda nazorat vositasi sifatidagina emas, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashuvchi pedagogik mexanizm sifatida qaraladi. Bugungi kunda baholashning nafaqat natijaga yo'naltirilgan shakllari, balki jarayonni baholash usullari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonida sifatni ta'minlash, o'quvchilarning bilim darajasini baholash va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, pedagogik va psixologik baholash tamoyillarini tushunish va amaliyotga tatbiq etish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada pedagogik va psixologik baholashning mohiyati, usullari va ahamiyati haqida batafsil so'z yuritiladi. Pedagogik baholash tushunchasi va uning ahamiyati: Pedagogik baholash - bu o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, baholash va ularga tahlil qilish jarayoni bo'lib, ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Pedagogik baholash quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

1. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlash;
2. O'qituvchilarga o'quv jarayonini yaxshilashga yordam berish;
3. O'quvchilarning qiziqishi va motivatsiyasini oshirish;

4. Ta'lim sifati monitoringini olib borish. Pedagogik baholash jarayonida turli xil usullar qo'llaniladi, jumladan, test sinovlari, yozma va og'zaki nazorat ishlari, loyihalar, amaliy topshiriqlar va portfoliolar.

Zamonaviy ta'lim tizimida formativ va summativ baholash usullaridan foydalanish muhim sanaladi. Psixologik baholash va uning ahamiyati Psixologik baholash - bu o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari, hissiy holati va motivatsiya darajasini aniqlash jarayonidir. Ushbu baholash o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning rivojlanish strategiyalarini belgilashga yordam beradi.

Psixologik baholashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

O'quvchilarning psixologik holatini aniqlash;

Ta'lim jarayonida individual yondashuvni qo'llash;

Stress, xavotir va boshqa psixologik muammolarni aniqlash;

O'quvchilarning ijtimoiy va hissiy rivojlanish darajasini baholash. Psixologik baholash jarayonida quyidagi usullar qo'llaniladi:

So'rovnomalar va testlar;

Kuzatish va intervyu usullari;

Psixometrik testlar;

O'quvchilarning o'z-o'zini baholash metodlari.

Zamonaviy ta'lim tizimida psixologik baholash o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, individual yondashuvni amalga oshirish va ta'lim jarayonini optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib Baholash o'qitish jarayonining ajralmas qismi bo'lib, nafaqat o'quvchining bilim darajasini aniqlash, balki uning rivojlanish dinamikasini kuzatish, o'qituvchining faoliyatini tahlil qilish va ta'lim sifatini nazorat qilish imkonini beradi. An'anaviy baholash usullari (og'zaki, yozma, test) ta'lim jarayonida uzoq yillar qo'llanib kelgan va hali ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Biroq, ular o'quvchining ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini baholashda cheklangan imkoniyatlarga ega. Zamonaviy baholash yondashuvlari (rubrikalar, portfoliolar, o'zaro baholash, o'zini baholash) ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni mustahkamlab, o'quvchining faol ishtirokini ta'minlaydi, tanqidiy fikrlash va refleksiya ko'nikmalarini rivojlantiradi deb aytishimiz mumkin. Reyting va ball asosidagi baholash tizimlari ta'lim jarayonini raqamli ko'rsatkichlar orqali tizimli tahlil qilishga imkon beradi. Bu usullar o'quvchilarning muntazam o'qish faoliyatini rag'batlantiradi va ob'yektiv baholashga xizmat qiladi. Baholash tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar: Baholashning formativen (rivojlantiruvchi) shakllarini keng joriy etish: O'quvchilarning rivojlanishini kuzatish va ularni rag'batlantirishga xizmat qiladigan baholash usullari (rubrikalar, refleksiya, o'zaro baholash) kengroq qo'llanishi lozim. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar va treninglar tashkil etish: Baholash mezonlarini to'g'ri

tuzish, zamonaviy yondashuvlardan foydalanish bo'yicha o'qituvchilar doimiy malaka oshirishlari zarur. An'anaviy va zamonaviy usullarni uyg'unlashtirish: Ta'limning har bir bosqichiga mos ravishda an'anaviy va zamonaviy baholash vositalarini birgalikda qo'llash ta'lim sifati uchun eng maqbul yechim hisoblanadi. Baholashda shaffoflik va adolat mezonlarini kuchaytirish: Baholash natijalarining ochiqligi, o'quvchi va ota-onalar bilan teskari aloqaning kuchli bo'lishi baholash tizimiga ishonchni oshiradi. Baholashni raqamlashtirish va avtomatlashtirish tizimlarini rivojlantirish: Elektron kundaliklar, onlayn test tizimlari, avtomatik tahlil vositalari baholash samaradorligini oshiradi. O'qitish jarayonida baholash usullari ta'limning samarali va sifatli tashkil etilishida muhim ahamiyatga ega. Baholash nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini aniqlash vositasi, balki o'qitish jarayonini boshqarish, uning samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim etuvchi mexanizm hisoblanadi. Turli baholash usullarining qo'llanilishi o'quvchilarning individual xususiyatlarini, o'rganish uslublarini hisobga olgan holda o'qitishni shaxsiylashtirishga imkon beradi. Shuningdek, baholash jarayoni o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali muloqot o'rnatishga, o'quvchilarning o'z-o'zini baholash va rivojlantirishga undashga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'limda baholashning an'anaviy yozma testlardan tortib, loyihalar, og'zaki taqdimotlar, portfoliolar va o'zaro baholash kabi ko'p qirrali usullargacha bo'lgan keng ko'lamdagi shakllari mavjud bo'lib, ular ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida qo'llanilishi mumkin. Baholash usullarining samaradorligi ularning tanlanishi, pedagogik sharoitga mosligi, shuningdek, baholash natijalarining tahlil qilinishi va ulardan ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun foydalanilishiga bog'liq. Shu bois, pedagoglarning baholash usullarini chuqur o'rganishi, zamonaviy texnologiyalar va yondashuvlarni amaliyotga joriy etishi ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'ladi. Natijada, o'qitish jarayonida baholash usullarining to'g'ri va samarali qo'llanilishi nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini aniq aniqlashga, balki ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, shuningdek, o'quv jarayonini doimiy ravishda takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlariga erishishda

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta'lim sifatini oshirish va baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. – 2021-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Umumiy o'rta ta'limda baholash tizimi bo'yicha metodik qo'llanma. – Toshkent, 2022.
4. Hasanboyeva M. Sh., Karimova D. K. Pedagogik texnologiyalar va baholash tizimi. – Toshkent: “Ilm ziyo”, 2021.

5. Allamuratova N. N. Zamonaviy dars va baholash tizimi. – Navoiy: NDU nashriyoti, 2020.
6. Biggs, J., & Tang, C. (2011). Teaching for Quality Learning at University. – McGraw-Hill Education.
7. Marzano, R. J. (2006). Classroom Assessment and Grading That Work. – ASCD.
8. Abduqodirov A. "Pedagogik baholash tizimi" – Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2018.
9. Nazarova G. "Ta'lim psixologiyasi asoslari" – Samarqand: Ilm nuri, 2020.
10. Hasanboyeva D. "Psixologik baholash metodlari" – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2019.muhim omil hisoblanadi.